Единый портал корпоративной информации

Существенные факты

"Узавтосаноат" АО
06. Решения, принятые высшим органом управления эмитента, в том числе решения наблюдательного совета хозяйственных обществ о выпуске акций, корпоративных облигаций и иных ценных бумаг

1.	**НАИМЕНОВАНИЕ ЭМИТЕНТА**	
	Полное:	"O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyati
	Сокращенное:	"Узавтосаноат" АО
	Наименование биржевого тикера:	Нет
2.	**КОНТАКТНЫЕ ДАННЫЕ**	
	Местонахождение:	г.Ташкент, Мирабадский район, ул. Амира Темура, 13
	Почтовый адрес:	г.Ташкент, Мирабадский район, ул. Амира Темура, 13
	Адрес электронной почты:	info@uzavtosanoat.uz
	Официальный веб-сайт:	www.uzavtosanoat.uz
3.	**ИНФОРМАЦИЯ О СУЩЕСТВЕННОМ ФАКТЕ**	
	Номер существенного факта:	6
	Наименование существенного факта:	Решения, принятые высшим органом управления эмитента, в том числе решения наблюдательного совета хозяйственных обществ о выпуске акций, корпоративных облигаций и иных ценных бумаг
	Вид собрания:	годовое
	Дата проведения собрания:	09.06.2025

Дата составления протокола собрания:	11.06.2025
Место проведения собрания:	г.Ташкент
Кворум собрания:	100,00

№	Вопросы, поставленные на голосование	Итоги голосования					
		за		против		воздержались	
		%	количество	%	количество	%	количество
1	“O‘zavtosanoat” AJ (emitent)ning 2023-yil uchun yillik hisobotini tasdiqlash.	100,0	1	0	0	0	0
2	“O‘zavtosanoat” AJning 2023-yildagi faoliyati natijalari bo‘yicha auditorlik tekshiruvi hisobotini va xulosasini ko‘rib chiqish.	100,0	1	0	0	0	0
3	“O‘zavtosanoat” AJning foydasi va zararlarini taqsimlash, shu jumladan 2023-yil yakuni bo‘yicha dividendlar to‘lash, dividendning miqdori, uni to‘lash shakli va tartibi to‘g‘risida qaror qabul qilish.	100,0	1	0	0	0	0
4	“O‘zavtosanoat” AJning ayrim ichki hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida.	100,0	1	0	0	0	0

№	Полные формулировки решений, принятых общим собранием
1	“O‘zavtosanoat” AJ (emitent)ning 2023-yil bo‘yicha yillik hisoboti tasdiqlansin (1-ilova).
2.1.	“O‘zavtosanoat” AJning 2023-yil moliya-xo‘jalik faoliyati yakuni bo‘yicha tashqi auditorlik tashkilotining xolis xulosasini olish uchun o‘tkazilgan tanlov natijalariga ko‘ra “TTT-Audit” MChJ xizmat haqi 71 680 000 (yetmish bir million olti yuz sakson ming) so‘m miqdori bilan auditorlik tashkiloti jalb qilinganligi va u bilan shartnoma tuzilganligi to‘g‘risida axborot ma’lumot uchun qabul qilinsin va tasdiqlansin.

2.2.	“O‘zavtosanoat” AJ Yagona aksiyadorining 5-2024-sonli qarori bilan jamiyat tashqi auditorlik tashkilotiga 2023-yil uchun Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bo‘yicha o‘tkaziladigan auditorlik tekshiruvi uchun to‘lanadigan xizmat haqi chegarasi 3 200 000 000 (uch milliard ikki yuz million) so‘m etib belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2.3.	“O‘zavtosanoat” AJning 2023-yil Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bo‘yicha o‘tkazilgan “Deloitte & Touche” MChJ auditorlik tashkilotining 2025-yil 28-fervraldagi auditorlik xulosasi 4.2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2.4.	“O‘zavtosanoat” AJning 2023-yil moliya-xo‘jalik faoliyati yakuni bo‘yicha “TTT-Audit” MChJ auditorlik tashkilotining 2024-yil 7-martdagi auditorlik xulosasi 4.1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2.5.	“O‘zavtosanoat” AJ Kuzatuv kengashi 2025-yil 28-fevraldagi yig‘ilishining 1-2025-sonli bayoni (5-ilova) ma’lumot uchun qabul qilinsin.
3.1.	“O‘zavtosanoat” AJ 2023-yil yakuni bo‘yicha buxgalteriya balansi, daromadlar va zararlar hisoblari mazkur qarorni 6-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.
3.2.	“O‘zavtosanoat” AJning 2024-yil 1-yanvar holatiga 1 199 878 365 957,41 so‘m (bir trillion bir yuz to‘qson to‘qqiz milliard sakkiz yuz yetmish sakkiz million uch yuz oltmish besh ming to‘qqiz yuz ellik yetti so‘m qirq bir tiyin) miqdoridagi taqsimlanmagan foydasi quyidagi tartibda taqsimlansin: 1) 75,96 foizini, ya’ni 911 460 479 359,0 so‘m (to‘qqiz o‘n bir milliard to‘rt yuz oltmish million to‘rt yuz yetmish to‘qqiz ming uch yuz ellik to‘qqiz so‘m) davlat ulushi bo‘yicha dividend to‘lashga yo‘naltirish. Shunda 1 dona oddiy aksiyaga 0,5 so‘m (50 tiyin) miqdorida pul mablag‘lari bilan to‘lanishi uchun dividend e’lon qilish va hisoblangan dividendlar miqdorini yagona aksiyador tomonidan dividend to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilingan sanadan 60 kun ichida to‘lash ta’minlash. 2) 0,15 foizini (yoki Jamiyatning 2023-yil yakuni bo‘yicha olingan sof foydasining 5 foizi bo‘lgan), ya’ni 1 742 582 454,27 so‘m (bir milliard yetti yuz qirq ikki million besh yuz sakson ikki ming to‘rt yuz ellik to‘rt so‘m yigirma yetti tiyin) zaxira fondiga yo‘naltirish; 3) 23,89 foizini, ya’ni 286 675 304 144,14 so‘m (ikki yuz sakson olti milliard olti yuz yetmish besh million uch yuz to‘rt ming bir yuz qirq to‘rt so‘m o‘n to‘rt tiyin) taqsimlanmasdan qoldirish.
3.3.	“O‘zavtosanoat” AJ Yagona aksiyadorining 2023-yil 27-iyundagi 13/19-15-sonli qarorining 7.2-bandining 3.2-qismi o‘z kuchini yo‘qotsin.
3.4.	“O‘zavtosanoat” AJ “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasi talabini bajarish masalasini tizim korxonalarining tegishli boshqaruv organlarida ko‘rib chiqilishini ta’minlasin.
4.1.	“O‘zavtosanoat” AJ yangi tahrirdagi Ustavi mazkur qarorning 7-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.
4.2.	Yangi tahrirdagi “O‘zavtosanoat” AJ Yagona aksiyadori to‘g‘risida”gi nizomi mazkur qarorning 8-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.
4.3.	Yangi tahrirdagi “O‘zavtosanoat” AJ Kuzatuv kengashi to‘g‘risida”gi nizomi mazkur qarorning 9-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

4.4.	Yangi tahrirdagi “O‘zavtosanoat” AJ Ijro etuvchi organini rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi nizomi mazkur qarorning 10-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

Текст вносимых изменений и (или) дополнений в устав	Загрузить

Ф.И.О. руководителя исполнительного органа:	Мухамедов Диёр Рауфович
Ф.И.О. главного бухгалтера:	Атабаев Отабек Хатамбекович
Ф.И.О. уполномоченного лица, разместившего информацию на веб-сайте:	Курбанов Азизбек Рустамбекович

Данная публикация на корпоративном веб-сайте эмитента

Источник: https://openinfo.uz/facts/6/12499
Дата: 12.06.2025